

## "TEMIR XOTIN" DRAMASINING FONETIK-FONOLOGIK TAHLILI

**Jo‘rayeva Mehriniso Safar qizi**

Termiz davlat universiteti

O‘zbek filologiyasi fakulteti

Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi

2-bosqich talabasi

**Xidirova Iroda Xolmurzayevna**

Ilmiy rahbar:

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “Temir xotin” dramasining fonetik-fonologik tahlili yuzasidan fikr yuritilgan bo‘lib, matnni tahlil qilishda matn tarkibida qo‘llanilgan dialogik suhbatdagi unli va undosh tovushlar, ya’ni fonetik birliklarning o‘zaro qo‘llanilishi o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** “Temir xotin” dramasi, badiiy matn, fonetik tahlil, nasriy matn, ekspressivlik, ta’sirchanlik, obrazlilik, fonetik usul, fonografik usul, unlilarni cho‘zish usuli, qahramon munosabati.

Badiiy matnni tahlil qilish jarayonida fonetik birliklarning estetik xusiyatlariga ham alohida e’tiborni qaratish lozim. She’riy matnda nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari tez va qulay idrok etiladi. Chunki she’rda o‘ziga xos jozibador ohang bo‘ladi. Bu ohangdorlikka tovushlarni uslubiy jihatdan qo‘llash natijasida erishiladi. She’riy matnlarda asosan, alliteratsiya(undoshlar takrori), assonans(unlilar takrori), gemintsiya(undoshlarni qavatlash) kabi bir qancha fonetik usullardan keng foydalilanadi. Nasrda esa unlilarni cho‘zish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, tovush tushirish yoki tovush orttirish kabi fonetik usullar yordamida badiiy asarning ta’sirchanligi, ekspressivligi ta’milnadi. Badiiy asarlarda ruhiy holatlarni

yozuvda ifodalash o‘ziga xos murakkablikni yuzaga chiqaradi. Asarda qahramonlar ruhiyatidagi ichki hayajon, xursand bo‘lish, rozilik, taajjub, yalinish, hayratlanish, kinoya, piching, kesatiq, olqish, so‘roq, ta’kid, qoniqmaslik, norozilik, tilak-istik, qo‘llab-quvvatlash kabi holatlarni aynan ifodalab berishda yozuvchilar unli yoki undosh harflarni birdan ortiq yozish usulidan foydalanadilar. [2,56;57].

Unlilarni birdan ortiq yozish usuli haqida gapiradigan bo‘lsak, bunda unlini cho‘zib talaffuz qilinganligi tushuniladi. Ya’niki, ma’lum bir unli harfni cho‘zib talaffuz qilish orqali asar qahramonining mavjud voqelikka munosabati oydinlashtiriladi. Ilmiy adabiyotlarda mazkur usul orqali belgining me’yordan kuchsiz yoki ortiq ekanligini ifodalashda foydalanishi ta’kidlanadi. [Abdullayev A, O‘zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi] Shuningdek, badiiy matnda unlilarni birdan ortiq yozish usulidan qahramonning biror nimadan hayratlanishi, taajjubga tushishi, kabi holatlarini ifodalashda foydalaniladi. Yana ushbu fonografik usuldan badiiy matnda xitob, chaqirish, da’vat, tinglovchi e’tiborini jalb qilish kabi maqsadlarda ham keng foydalanishini kuzatish mumkin bo‘ladi. Endi quyida Sh. Boshbekovning “Temir xotin” dramasining ushbu fonografik usuldagagi tahliliga yuzlanamiz:

Ечиб кўй дарров, хў-ў!.. Қумри, деяпман, жаҳлим чиқса нима бўлишини биласан-а? – xitob, chaqiriq ma’nolari va belgining ortiqligi ifodalangan.

ҚўЧҚОР. Ҳо-о, қарорниам биларканларми! – hayratlanish ma’nosи va belgining ortiqligi ifodalangan.

Бозортой! Хў-ў, Бозортой! Бир турқингизни кўрсатворинг, Бозортой-ҳо!.. – xitob, chaqiriq ma’nolari va belgining ortiqligi ifodalangan.

ҚўЧҚОР. Ҳа-а... Уйда бўлса ток қайчисини бериб турсин, девдим. Ишком жа тарвақайлаб кетибди...- tasdiq ma’nosи va belgining kuchsizligi ifodalangan.

ОЛИМЖОН. Э-э, Қўчқор ака, ассалому алайкум! Мана, тағин келдик-да. – xursand bo‘lish ma’nosи va belgining ortiqligi ifodalangan.

ОЛИМЖОН. Э-э, чатоқ бўпти-ку... Кетиб қблдилар, денг?- achinish ma’nosи va belgining kuchsizligi ifodalangan.

ОЛИМЖОН. Ҳа-а, кеннойимнинг кетиб қолганлари яхши бўлмабди. – tasdiq ma'nosи va belgining kuchsizligi ifodalangan.

ҚЎЧҚОР (гўё тушунгандай). Ҳа-а... Шунақа де? – tasdiq ma'nosи va belgining kuchsizligi ifodalangan.

ҚЎЧҚОР. Ҳа-а... Буни-ку дуруст ўйлабсан, Олимтой. – tasdiq ma'nosи va belgining kuchsizligi ifodalangan.

ҚЎЧҚОР (ҳайратдан оғзи очилиб). Во-о!.. – hayratlanish, taajjublanish ma'nosи va belgining ortiqligi ifodalangan.

ҚЎЧҚОР (бирдан). Э-э, одамнинг бошини қотирасан-а! – piching ma'nosи va belgining ortiqligi ifodalangan.

ҚЎЧҚОР. Ҳа-а... Худди тириқдай-а, тавба!.. – tasdiq ma'nosи va belgining kuchsizligi ifodalangan.

ҚЎЧҚОР. О-олимтой!.. Буям, ҳалиги, магнитофондай гап экан-да, а?-taajjublanish ma'nosи va belgining ortiqligi ifodalangan.

Ҳа-а, ишқилиб омон бўлайлик... – tasdiq ma'nosи va belgining kuchsizligi ifodalangan.

Э-э, ишқилиб, замон тинч бўлсин... qoniqmaslik ma'nosи va belgining kuchsizligi ifodalangan.

Тинмайди-да, тинмайди! Ёмо-он яхши бола лекин! Ракатопсин! – kesatiq ma'nosи va belgining ortiqligi ifodalangan.

ҚЎЧҚОР. Энди-и, Аломатхон, мана шу рўзғорнинг оғир-енгили икковимизнинг бўйнимизда, хўпми. - ta'kidlash ma'nosи va belgining kuchsizligi ifodalangan.

СУВОН. Энди-и, мулла Қўчқор, таом еб юрган жойи-шиз. Худо хоҳласа, ҳали кў-ўп келамиз... – ta'kid, piching ma'nosи va belgining kuchsizligi ifodalangan.

ҚЎЧҚОР. Ие! Бу энди, ҳали кў-ўп уйланасиз, деганингиз-ми, тақсир? – ta'kid ma'nosи va belgining ortiqligi ifodalangan.

СУВОН. Боракалло-о... (Косани олиб, бир нималарни пи chirлайди.) – hayrat ma'nosи va belgining ortiqligi ifodalangan.

Исмлари — Аломатхон. Эшитдингиз-ку. Хўш, деганингиздан билсақ, тақсир, оталари-и... қазо қилиб кетганлар, тақсир. – ta'kid ma'nosi va belgining kuchsizligi ifodalangan.

ОЛИМЖОН. Э-э, нима деяпсиз, Кўчкор ака? Бу фақат лаборатория шароитида синалади. - norozilik ma'nosi va belgining ortiqligi ifodalangan.

ҚЎЧҚОР. Ҳа-а, бундан чиқди, са-ал аҳмоғроқ бўлиши керак эканда, а, Олимтой. – tasdiq va kesatiq ma'nosi va belgining kuchsizligi ifodalangan.

ҚЎЧҚОР (ноилож чиқиб). Э-э, келинг, кеннойи, келинг...- taajjublanish ma'nosi va belgining ortiqligi ifodalangan.

ОЛИМЖОН, И-и, кетдим, кетдим!.. (Югуриб келиб қарашади.)- rozilik ma'nosi va belgining kuchsizligi ifodalangan.

ҚЎЧҚОР (ҳафсаласи пир бўлиб). А-а, сенлар ем емайдиган мол эмас, мол емайдиган ем ўйлаб топишга устасанлар!...- kesatiq ma'nosi va belgining ortiqligi ifodalangan.

ОЛИМЖОН. Э-э, ҳали «минг-минг»гача гап кўп. – ta'kid ma'nosi va belgining kuchsizligi ifodalangan.

ОЛИМЖОН. Ҳа-а, одам-робот яратишнинг бунақа томонлари ҳам бор экан. – tasdiq ma'nosi va belgining kuchsizligi ifodalangan.

ҚЎЧҚОР. Э-э, унда сиз ҳам ўзимизнинг раҳбарларга ўхшаган гап экансизда. – ta'kid ma'nosi va belgining kuchsizligi ifodalangan.

ҚЎЧҚОР (Кўзларида ёш ўйнаб). Ёл-го-он!.. Мен ҳеч қачон йифламаганман!.. – ta'kid va norozilik ma'nosi va belgining ortiqligi ifodalangan.

ШАРОФАТ . Ҳа-а... Майли, келсалар айтиб қўяман. (Ғойиб бўлади.) – tasdiq ma'nosi va belgining kuchsizligi ifodalangan.

ШАРОФАТ . Э-э, иш кўп, ким радио эшитади, дейсиз... (Ғойиб бўлади.) – piching ma'nosi va belgining kuchsizligi ifodalangan.

Э-э, дунё кўрган одаммиз-да, Қумри, биламиз. – ta'kid ma'nosi va belgining kuchsizligi ifodalangan.

Йў-ўқ, сиз юраги тош одамсиз, Кўчкор ака! – tasdiq va norozilik ma'nolari va belgining ortiqligi ifodalangan.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilishim mumkinki, badiiy matnning fonetik-fonologik xususiyatlari matn kuchini ta'minlab beruvchi asosiy, tayanch bo‘g‘in hisoblanadi. Matn kuchi deganda matnning ekspressivligi, emotsionalligi, obrazliligi, jozibadorligi, kitobxonni jalb qila olish kabi bir qancha xususiyatlar tushuniladi. Ushbu tahlil qilingan “ Temir xotin” dramasi ham xuddi shunday asar hisoblanib qolmay, sshak-shubhasiz o‘quvchini o‘ziga qarata oladi desak adashmagna bo‘lamiz. Matn tarkibida unlilarni cho‘zish usuli nihoyatda ko‘p qo‘llanilgan bo‘lib, aynan mana shu jarayon orqali ham matn ta’sirchanligi yanada ortgan. Unlilarni cho‘zish jarayonida ularda turli ma’no nozikliklarining kashf etilishi yozuvchining qanchalik mahoratli ekanligini ko‘rsatib berishi bilan bir qatorda, asarni o‘qishliliginini yanada oshirishga xizmat qilmoqda. Asar tahlili jarayonida 35 o‘rinda unlilarning cho‘ziq holda qo‘llanilish usulidan foydalanilganligiga guvoh bo‘ldik. Ushbu usul orqali butun bir boshli matn ma’nosiga qo‘srimcha ravishda kesatiq, piching, tasdiq, hayratlanish, norozilik, taajjublanish, kinoya, ta’kid, rozilik, xursandlik, hayrat kabi bir necha ma’no nozikliklarini yuklanganligini guvohi bo‘lamiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Sh. Boshbekov, “Temir xotin”(komediya).
2. Qurbanova M. Matn tilshunosligi. – T: “Universitet nashriyoti”,2014.
3. Abdullayev A. O‘zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. – T: “Fan”,1963.
4. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – T.,2007.